

---

## ICHKI YO'LLARNI TA'MIRLASH BO'YICHA "MENING YO'LIM" LOYIHASIGA START BERILDI



### **Ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha "Mening yo'lim" loyihasiga start berildi**

"Ochiq byudjet" axborot portalida "Mening yo'lim" loyihasining 2023 yilgi mavsumiga 17 apreldan start berildi.

Tuman (shahar) byudjetlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun rejalashtirilgan mablag'larning kamida 50 foiz qismini fuqarolar fikri asosida yo'naltirishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan "Mening yo'lim" loyihasining joriy yilgi mavsumi uchun respublika bo'yicha 312 milliard so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltirilishi rejalashtirilgan.

Loyiha doirasida taklif kiritish jarayoni 27 aprel sanasiga qadar davom etadi. Kiritilgan takliflar uchun ovoz berish jarayonlari 28 apreldan 7 mayga qadar o'tkaziladi.

#### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-17 17:31:47